

JADID AJDODLARIMIZNING ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDAGI AXAMIYATI

Yuldashev Elyorjon Sodiqovich

Maxamadjonva Minavvarxon

Abduqahorova Sarvinoz

Qo'qon davlat universiteti pedagogika kafedrasida o'qituvchisi (PhD)

San'at va sport fakulteti musiqa talim yo'nalishi 02/24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20229635>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid pedagogikasining shakllanishi, uning asosiy g'oyalari va tamoyillari hamda bugungi zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Jadid mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari, xususan Abdulla Avloniy, Mahmudxoja Behbudiy va Abdurauf Fitratning pedagogik merosi asosida o'rganiladi. Shuningdek, jadid maktablarining o'ziga xos jihatlari va ularning bugungi ta'lim tizimi bilan uyg'unligi ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: jadid pedagogikasi, usuli jadid, zamonaviy ta'lim, innovatsion metodlar, tarbiya, ma'naviyat.

Abstract. This article analyzes the formation of Jadid pedagogy, its main ideas and principles, as well as its role in the modern education system. The educational views of Jadid thinkers are studied based on the pedagogical heritage of Abdulla Avloniy, Mahmudxoja Behbudiy, and Abdurauf Fitrat. In addition, the specific features of Jadid schools and their compatibility with today's education system are scientifically highlighted.

Keywords: Jadid pedagogy, Jadid method, modern education, innovative methods, upbringing, spirituality.

Аннотация. В данной статье анализируются становление джадидской педагогики, её основные идеи и принципы, а также её роль в современной системе образования. Педагогические взгляды джадидских мыслителей рассматриваются на основе наследия Abdulla Avloniy, Mahmudxoja Behbudiy и Abdurauf Fitrat. Также научно освещаются особенности джадидских школ и их соответствие современной системе образования.

Ключевые слова: джадидская педагогика, джадидский метод, современное образование, инновационные методы, воспитание, духовность.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki pedagogik islohotlar bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi. Jadidlar eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi – “usuli jadid” maktablarini tashkil etish orqali ta'limni zamonaviylashtirishga harakat qildilar. Jadid mutafakkirlari, xususan Abdulla Avloniy ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rgan. Uning fikricha, “tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir”. Bu g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, Mahmudxoja Behbudiy maktab va madrasalarning isloh qilinishi, dunyoviy fanlarni o'qitish zarurligini ilgari surgan bo'lsa, Abdurauf Fitrat yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jadid

pedagogikasining asosiy g'oyalari – yangilikka intilish, amaliy bilim berish, tarbiya va ma'naviyatni uyg'un holda olib borish – bugungi ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur maqolada jadid pedagogikasining nazariy asoslari va ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Jadid pedagogikasi – bu ta'limni zamonaviylashtirish, o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etish va yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizimdir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan asosiy tamoyillar; ta'limning dunyoviy va ilmiy asosda tashkil etilishi, o'qitishda ko'rgazmalilik va tushunarlik tamoyili, O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tarbiya va ta'limning uzviyligi va boshqalar. Bu tamoyillar bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosiy prinsiplari sifatida qaraladi. Jadid maktablari eski maktablardan tubdan farq qilgan. Ular yangi o'qitish metodlari asosida tashkil etilgan bo'lib, quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: Darslar sinf tizimida olib borilgan. O'qitishda yangi usullar qo'llanilgan Matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarga e'tibor qaratilgan. O'quvchilarning savodxonligini tez oshirish maqsad qilingan. Bu jihatlar hozirgi zamonaviy maktab tizimi bilan juda yaqin ekanligini ko'rish mumkin. Bugungi ta'lim tizimida jadid pedagogikasining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa quyidagi yo'nalishlarda bu yaqqol namoyon bo'ladi: Jadidlar o'z davrida innovatori bo'lgan. Bugungi kunda esa zamonaviy ta'lim interfaol metodlar, axborot texnologiyalari orqali rivojlanmoqda. Bu esa jadidlar boshlab bergan yo'lning davomidir. Jadidlar faqat bilim berish emas, balki uni amalda qo'llay oladigan shaxsni tarbiyalashga intilgan. Bu bugungi kompetensiyaviy ta'lim modeliga to'la mos keladi. Hozirgi kunda jadid pedagogikadan quyidagi yo'nalishlarda samarali foydalanish mumkin: dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Bu metodlarta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jadid pedagogikasi o'z davrida milliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan ilg'or harakat bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jadid mutafakkirlari ilgari surgan ta'lim-tarbiya g'oyalari zamonaviy pedagogikaning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb bilib, yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Uning tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Mahmudxoja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan maktab va madrasalarni isloh qilish, ta'lim jarayoniga dunyoviy fanlarni keng joriy etish g'oyalari bugungi kunda zamonaviy o'quv dasturlarining asosini tashkil etmoqda. Uning qarashlari orqali ta'limning mazmunini boyitish, uni hayot bilan bog'lash zarurati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, Abdurauf Fitrat yoshlarni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va zamon talablari asosida yashay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Xulosa qilib aytganda jadid pedagogikasining asosiy g'oyalari — yangilikka intilish, ilm-fanga asoslangan ta'lim, tarbiya va ma'naviyatning uyg'unligi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish — bugungi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari bilan to'liq mos keladi. Shu bois, jadid pedagogik merosini chuqur o'rganish, uni zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki barkamol avlodni tarbiyalashga ham xizmat

qiladi. Shunday ekan, jadid mutafakkirlarining boy pedagogik merosi bugungi globallashuv sharoitida milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda mustahkam ilmiy va ma'naviy asos bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O'zbekiston, 1992. –160 b.
3. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1 qism. – Toshkent, Yozuvchi, 1996. – 216 b.
4. Кузмина Н.В. Способности, одаренност, талант учителя. Л.: Знанийе, 1985.- 32 с.
5. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: Книга для учителя.- М.: Просвешченийе, 1990.- 159 с.
6. Леонтев А.Н. Деятелност. Сознанийе. Личност. – М.: Политиздат, 1975.- 304 с